



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 11-oktabr

528-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024 yil 9-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PQ–330-son qarori ijrosi haqida”gi 466-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PQ–330-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 9-oktabrdagi 466-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 9-oktabrdagi 466-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PQ–330-son qarori bilan:

quyidagilar:

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini (keyingi o‘rinlarda – Dastur) amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

2024-2025-yillarda aholini kambag‘allikdan chiqarishning yo‘nalishlar va hududlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlari 2 va 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilab qo‘yilishicha, mahallalarda kambag‘al oilani aniqlash, ularni Kambag‘al oilalar reestriga kiritish, kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan choralarni ko‘rish, reestrda chiqarish jarayonlari “mahalla yettiligi” tomonidan hamkorlik asosida quyidagi tartibda amalga oshirilishi:

kambag‘al oilalar yagona savolnoma asosida baholanishi va ularning ijtimoiy portreti shakllantirilishi;

ijtimoiy xodim va hokim yordamchisi tomonidan ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash, uy-joy, bandlik, ta‘lim, xulq-atvor yo‘nalishlarini qamrab oluvchi oilani kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual reja ishlab chiqilishi;

kambag‘al oilalarga – daromadli mehnat faoliyati bilan band qilish va tadbirkorlikka jalb qilish yo‘nalishida hokim yordamchisi, ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash va ta‘lim yo‘nalishlarida – ijtimoiy xodim hamrohlik qilishi;

oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual rejaning samaradorligi va natijadorligi monitoring qilib borilishi;

belgilanishicha:

2025-yil 1-yanvardan boshlab kambag'al oilalar farzandlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga imtiyozli asosda qabul qilinishi;

2025/2026-o'quv yilidan boshlab, kambag'al oilalar farzandlarining davlat oliy ta'lim muassasalari talabalar turar joylaridagi yashash xarajatlari Davlat budjeti hisobidan qoplab berilishi;

2025-yildan boshlab "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan kambag'al oilalarning farzandlari uchun alohida kvotalar ajratilishi;

AT "Xalq banki", "Mikrokreditbank" ATB birlashtirilgan rahbarlarning xulosasi asosida:

kambag'al oilalarga noutbuk sotib olish uchun 5 yil muddatga 2 yil imtiyozli davr bilan garovsiz va foizsiz qarz ajratilishi;

tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun qiymati 30 mln so'mgacha bo'lgan kichik ishlab chiqarish uskunalari, ko'chma do'konlar (food truck), motoroller, skuter va shu kabi boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun 5 yil muddatga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan garovsiz va foizsiz qarz ajratilishi;

Dasturni amalga oshirish doirasida 2024-2025-yillarda tajriba tariqasida og'ir ahvoldagi oilalarni kambag'allikdan chiqarish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi tartib tajriba tariqasida joriy etilishi:

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) tashkilotlarining 14 mingta rahbarlari va ularning o'rinbosarlarining har biriga har 6 oyda 5 tadan eng og'ir ahvoldagi kambag'al oilalar birlashtirilishi, bunda birlashtirilgan mas'ullar quyidagi vazifalarni amalga oshirishi:

oilalarning kambag'allik holatiga tushish sabablarini o'rganib, "mahalla yettiligi" tomonidan oilani kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual reja ishlab chiqilishini ta'minlashi;

"mahalla yettiligi", tijorat banklari, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi hamda yetakchi tadbirkorlarni jalb qilgan holda oilalarning o'z tomorqasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga, ishtiyoqi bor shaxslarning o'zini o'zi band qilishiga va tadbirkorlikni yo'lga qo'yishiga hamda oila a'zolarining, ayollarning kasb-hunar va xorijiy tilni o'rganishiga, ularga bo'sh ish o'rinlarini topishga va ishga joylashishiga ko'maklashishi;

tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun kichik ishlab chiqarish uskunalari, ko'chma do'konlar, motoroller, skuter va shu kabi boshqa asosiy vositalarni foizsiz qarz hisobidan olib berishi;

kambag'al oilalar farzandlarini maktabgacha ta'lim tashkilotiga joylashtirishga ko'maklashishi, bolalarning ta'lim muassasalariga, qo'shimcha darslar va to'garaklarga qatnashishini nazoratga oladi hamda foizsiz qarz asosida olib berilgan noutbukdan samarali foydalanishiga shart-sharoit yaratib berishi, har bir oilaga homiylik asosida dars stoli va stuli, sport kiyimlarini olishga yordam berishi;

oilaning davlat tomonidan taqdim etiladigan tibbiy xizmatlardan to'liq foydalanishini, xususan, ayollar va bolalarning tizimli ravishda skrining tekshiruvidan o'tkazilishini ta'minlashi, xonadon sanitariya holatini yaxshilashga, kundalik turmush tarzi va ovqatlanishda zararli odatlardan voz kechishga, yoshidan qat'iy nazar har bir oila a'zosining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga, qariyalarni piyoda yurishga undashi;

oilalarning mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi omillarni bartaraf etish uchun ijtimoiy xodim bilan birgalikda zarur ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatilishini ta'minlashi;

har oyda ikki marta o'ziga birlashtirilgan oilalar bilan uchrashib, kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual rejada belgilangan choralar amalga oshirilishini tahlil qilishi, yuzaga kelgan muammolarni aniqlashi hamda ularni joyida bartaraf etish choralari ko'rib borishi;

b) 2024-2025-yillarda respublika darajasidagi davlat idoralari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari eng og'ir ahvoldagi 1 000 ta mahallaga birlashtirilishi, bunda mahallaga birlashtiriladigan mas'ullar quyidagi vazifalarni amalga oshirishi:

tadbirkorlarning muammolarini hal etish, mahallaning iqtisodiy rivojlanishiga turtki beradigan zaxira va imkoniyatlarni ishga solishga ko'maklashishi, tomorqadan samarali foydalanishni tashkil etishi;

elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash, mahallani tuman markazi bilan bog'lash, shu jumladan, avtobus va taksilar faoliyatini yo'lga qo'yish va ichki yo'llarini ta'mirlash, asosiy ko'chalarni shag'allashtirish va energiya tejamkor yoritkichlar o'rnatish, toza ichimlik suv bilan ta'minlash choralari ko'rishi;

internet tezligi va sifatini oshirishga hamda maktablar bilan birgalikda kambag'al oilalarning a'zolari uchun axborot texnologiyalari to'garaklarini tashkil etishga ko'maklashishi;

mahallani tashabbusli budjet jarayonlariga faol jalb qilishi hamda mahalla infratuzilmasini yaxshilash loyihalari ishlab chiqilishida amaliy yordam berishi;

mahallada yoki uning yaqinida joylashgan ta'lim muassasasi (umumta'lim maktabi, kasb-hunar maktabi, musiqa va san'at yoki sport maktabi) bazasida qo'shimcha darslar, xorijiy til va kompyuter kurslari, sport to'garaklari tashkil etilishini nazorat qilishi;

yoshlarga, xususan, 9-sinf bitiruvchilarining ta'lim olishga va kasb-hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi va ularni yo'naltirish, oliy va professional ta'lim muassasalarida tahsil olish orqali kelajakda yashash tarzini yaxshilash imkoniyatlari haqida tushunchalar berishi;

mahalla hududida joylashgan maktabgacha ta'lim va maktab hojatxonalari ta'mirlanishini nazoratga olishi;

har oyda bir marta o'ziga birlashtirilgan mahallalarga borib, chora-tadbirlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilishini tahlil qilib, yuzaga kelgan muammolarni aniqlashi va ularni joyida bartaraf etish choralari ko'rishi;

v) kambag'al oilalar va mahallalarga birlashtirilgan rahbarlarga zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida tegishli tashkilotning foydasi va budjetdan tashqari mablag'laridan foydalanishga ruxsat etilishi, bunda ko'mak ko'rsatish faqat kambag'al oilalar o'z daromadini oshirishi, farzandlarining ta'lim olishi va oila a'zolarining sog'lig'ini tiklashi va yashash sharoitini yaxshilashi bilan bog'liq boshqa majburiyatlarni bajargan taqdirda amalga oshirilishi;

ushbu mablag'lar hisobidan kambag'al oilalarga moddiy yordam ko'rsatish taqiqlanishi;

belgilanishicha, 2025-yil 1-apreldan boshlab:

Samarqand va Toshkent shaharlarida eksperiment tariqasida autsorsing asosida Kambag'al oilalar reestriga kiritilgan boquvchisini yo'qotgan to'liq bo'lmagan oilalar, mehnatga layoqatli a'zosi bo'lmagan oilalar, ikki va undan ortiq nogiron a'zolari mavjud oilalardagi o'zgaralar parvarishiga muhtoj shaxslarga kunduzgi qatnov asosida qarab turish xizmati ko'rsatilishi;

ijtimoiy yetimlikning oldini olish, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga individual yondashuv asosida oilaga yaqin muhitda g'amxo'rlik ko'rsatish hamda tarbiyalash xizmatini ko'rsatish maqsadida mahallalarda oila shaklidagi kichik hajmli bolalar uylari tashkil etilishi, bunda dastlabki bosqichda mazkur tadbirlar Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan 2024 yilda Toshkent shahrida amalga oshirilishi;

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslarga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kunduzgi parvarish xizmatlarini hamda yuridik shaxslarga nogironligi bo'lgan bolalar, shu jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun kunduzgi parvarish xizmatlarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ko'rsatishga ruxsat berilishi;

belgilanishicha, hududlarda Dastur ijrosini ta'minlashga quyidagi mas'ullar bilan birga tuman va shahar hokimlari shaxsan mas'ul va javobgar bo'lishi:

oilalarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning o'z vaqtida va sifatli taqdim etilishiga, mahallalarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishga, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishga – "mahalla yettiligi";

barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishishga – Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, tijorat banklari;

ta'lim olish va kasb-hunar o'rganishga – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sport vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi;

kafolatlangan davlat tibbiy xizmatidan foydalanishga – Sog'liqni saqlash vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Sport vazirligi;

ijtimoiy xizmatdan foydalanishga – Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi;

yashash sharoitlarini yaxshilashga – Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Suv xoʻjaligi vazirligi, Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi;

davlat tomonidan mahallalar infratuzilmasini rivojlantirishga – Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi, Energetika vazirligi, Suv xoʻjaligi vazirligi, Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi eʼtiborga olinsin.

3. “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturini (keyingi oʻrinlarda – Dastur) amalga oshirish boʻyicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

2024-2025-yillarda aholini kambagʻallikdan chiqarishning yoʻnalishlar va maqsadli koʻrsatkichlari 2 - 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari A.Abdusalomov, tuman hokimining qurilish, toʻsiqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xoʻjalik, ekologiya va koʻkalamzorlashtirish masalalari boʻyicha oʻrinbosari H.Boylarov, tuman hokimining oʻrinbosari – investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi boshligʻi Sh.Umaraliyev, tuman hokimning qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari B.Moʻydinov, tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari J.Raximov:

ikki hafta muddatda eng ogʻir ahvoldagi 6 ta mahallani tanlab, roʻyxatini shakllantirsin hamda ularning infratuzilmasini yaxshilash dasturini 1 noyabrga qadar tasdiqlasin. Bunda 2024-2025 yillarda mazkur mahallalarda tomorqa yerlarini sugʻorishni yaxshilash yoki ularda elektr energiyasi barqaror yetkazib berilishini taʼminlash, internet sifatini oshirish, ichki yoʻllarni taʼmirlash va boshqa infratuzilmalarni yaxshilash maqsadlari uchun mablagʻlar ajratiladi;

oʻn kun muddatda tumanning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xoʻjaligi hamda xizmat koʻrsatish sohalarida tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beruvchi 5 tadan “drayver” loyihalar roʻyxatini tasdiqlasin va ularga zarur infratuzilmani yaratish uchun mablagʻ ajratilishini taʼminlasin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari A.Abdusalomov, Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (Z.Joʻrabayev) Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi (Z.Axmadjonov) va tijorat banklari bilan birgalikda aholini tadbirkorlikka jalb qilish hamda Kambagʻal oilalar reestriga kiritilgan oilalar (keyingi oʻrinlarda – kambagʻal oilalar) aʼzolarining bandligini taʼminlagan tadbirkorlarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash uchun:

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, “Biznesga birinchi qadam” dasturlari hamda mikromoliya tashkilotlari orqali kreditlar ajratilishini taʼminlasin;

oʻn kun muddatda subsidiyalar turlarini maqbullashtirish va mazkur maqsadlar uchun koʻzda tutilgan mablagʻlar hajmini kamaytirmagan holda kambagʻal oilalarga foizsiz ssuda ajratish tartibi boʻyicha takliflarni kiritsin;

tadbirkorlar bilan uchrashuvlarni muntazam ravishda oʻtkazib borish, ularning muammolarini hal qilish, moliyaviy qoʻllab-quvvatlashning uzluksizligini taʼminlash hamda kreditlash hajmini oshirib borish, tashabbuskorlarga boʻsh yer maydonlarini auksion orqali sotish choralari koʻrsin, tadbirkorlarning infratuzilma bilan bogʻliq muammolarini hal etsin.

6. Tuman hokimning qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari B.Moʻydinov, Qishloq xoʻjaligi boʻlimi (A.Xakimov) bilan birgalikda bir oy muddatda 2024-2025-yillarda paxtagʻalla maydonlarini qisqartirish hisobiga “kompaniya – kooperativ – dehqon xoʻjaligi” tamoyili asosida dehqonchilik va bogʻdorchilik tashkil etish uchun yer maydonini kambagʻal oilalarga 30 yilgacha ijaraga berish boʻyicha qaror loyihasiga takliflarini Qishloq xoʻjaligi boshqarmasiga kiritsin.

Bunda:

yer maydonlarini ijaraga berish bo'yicha elektron onlayn auksion savdolarini "mahalla yettiligi"ning tavsiyasi bilan kambag'al oilalar o'rtasida o'tkazish;

yer maydonlarini ijaraga berish bo'yicha elektron onlayn auksion savdolari g'oliblariga yer uchastkasi narxini 10 yil muddatga teng ulushlarda foizsiz bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berilishi ko'zda tutilsin.

7. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov, tuman hokimligining raqamlashtirish bo'yicha loyiha menejeri J.Axmadaliyev, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev) hamda Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jo'rabayev) bilan birgalikda:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son qaroridan kelib chiqib umumta'lim maktablarining bo'sh turgan yer va bino-inshootlarida xorijiy tillar, kasb-hunarga o'qitish va axborot texnologiyalari va dasturlash bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish hamda maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 2025 yil yakunigacha 99 foizga yetkazish bo'yicha dasturni ikki oy muddatda tuman hokimligiga kiritsin;

Sport bo'limi (M.Abduqodirov) bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar har bir umumta'lim maktabida, "Barkamol avlod" bolalar maktablarida, shu jumladan, xususiy sektorni jalb qilgan holda maktabdan tashqari ta'lim va sport to'garaklari tashkil etilishini ta'minlasin;

ikki oy muddatda xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilishini moliyaviy rag'batlantirish bo'yicha takliflarni tuman hokimligiga kiritsin.

Umumta'lim maktablarida to'garaklarni tashkil etish va ularga kambag'al oilalarning farzandlarini jalb qilish maqsadida 2025-yil uchun mahalliy budjet parametrlarini shakllantirishda nazarda tutilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**

Mingbuloq tuman hokimining  
2024-yil 11-oktabrdagi  
528-6-81-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar**

**REJASI**

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Mas’ullar</b>
<b>I. Dasturni amalga oshirishida tashkiliy va birinchi darajali chora-tadbirlar</b>				
1.	Idora va tashkilotlarining rahbarlari va ularning o‘rinbosarlarining har biriga 5 tadan eng og‘ir ahvoldagi kambag‘al oilalarni biriktirish.	Mahalla kesimida rahbarlar va ularning o‘rinbosarlari birlashtiriladigan kambag‘al oilalar ro‘yxatini shakllantirish. Kambag‘al oilalarning kambag‘allikka tushish sabablaridan kelib chiqib, rahbarlar va ularning o‘rinbosarlarini 5 tadan oilaga biriktirish. Mazkur rahbarlarga 6 oydan so‘ng yana 5 tadan oilani biriktirish.	2024-yil 11-oktabr  Bir hafta muddatda  Har 6 oyda	Tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari, idora va tashkilotlar rahbarlari
2.	Eng og‘ir ahvoldagi mahallalarga viloyat darajasidagi davlat idoralari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlarini biriktirish.	Kam ta‘minlangan oilalarning ulushi yuqori, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda infratuzilmabilan ta‘minlanish darajasi past bo‘lgan eng og‘ir ahvoldagi 6 ta mahallalar ro‘yxatini shakllantirish va tasdiqlash. Eng og‘ir ahvoldagi mahallalarga birlashtiriladigan viloyat darajasidagi rahbarlar va ularning o‘rinbosarlar ro‘yxatini shakllantirish va ularga mahallalarni biriktirish.	2024-yil 5-oktabr  Bir hafta muddatda	Tuman hokimining sohalar bo‘yicha o‘rinbosarlari, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi ( <i>Z.Axmadjonov</i> ), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi ( <i>Z.Jo‘rabayev</i> ), Mingbuloq tuman «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazi ( <i>E.Abdurahmonov</i> )
<b>II. Barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish, tadbirkorlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatish, “drayver” loyihalarni amalga oshirish, yer maydonlarini kambag‘al oilalarga ijaraga berish, tadbirkorlikka jalb qilish</b>				

3.	2024-yil yakuniga qadar 410 ta oilani, 2025-yil davomida 820 ta oilani kambag'allikdan chiqarish choralarini ko'rish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2024-2025-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlarni "viloyat — tuman (shahar) – mahalla" darajasida belgilash. Mavjud iqtisodiy instrumentlar asosida aholi bandligini ta'minlash, yoshlarning ta'lim olishi va kasb-hunar o'rganishi, aholining tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishi hamda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish choralarini ko'rish. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan choraklik ma'lumotlarni tuman hokimligiga taqdim etib borish.	2024-2025-yillar davomida	Tuman hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari, Kambag'allikni qisqartirishva bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jo'rabayev), Mingbuloq tuman «Inson» jtimoiy xizmatlar markazi (E.Abdurahmonov)
<b>III. Ta'lim olish va kasb-hunarga o'rganish imkoniyatini yaratish, maktabgacha ta'lim bilan qamrovnini oshirish, xorijiy tillarga, kasb-hunarga yoki mutaxassislikka o'qitish, oliy ma'lumot olishga ko'maklashish</b>				

4.	2025-yil yakuniga qadar tumandagi 3 — 7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 99 foizga yetkazish.	<p>Mahallalar kesimida 3 — 7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi darajasini o'rganibchiqish.</p> <p>2025-yil yakuniga qadar 3 — 7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish dasturini ishlab chiqish va bunda quyidagilarni nazarda tutish:</p> <p>aholining yashash darajasi va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan (kambag'al oilalar kam bo'lgan) mahallalarda davlat-xususiy sheriklik shaklidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkiletish;</p> <p>oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini faqatgina olis va chekka mahallalarda tashkil etish;</p> <p>aholining to'lov qobiliyati past (kambag'al oilalar nisbatan ko'p bo'lgan) va demografik o'sish darajasi yuqori bo'lgan mahallalarda davlat, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari kredit va grant mablag'lari</p>	<p>2024-yil 1-oktabr</p> <p>2024-yil 1-noyabr</p>	<p>Tuman hokimining o'ribosari J.Raximov, Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi (<i>O.Xujayev</i>), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (<i>Z.Jo'rabayev</i>)</p>
----	--	---	---	--



6.	<p>Oilaning davlat tomonidan taqdim etiladigan tibbiy xizmatlardan to'liq foydalanishi, xususan, ayollar va bolalarning tizimli ravishda skriningdan o'tkazilishini ta'minlash, xonadonda sanitariya holatini yaxshilash, oila a'zolarini zararli odatlardan voz kechishga, yoshidan qat'iy nazar har bir oila a'zosining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga erishish, qariyalarni piyoda yurishga</p>	<p>Aholini profilaktik tibbiy ko'riklardan o'tkazishgrafigini ishlab chiqish. Tasdiqlangan grafik asosida tibbiy ko'riklartashkil etish. Sog'lom turmush tarzini targ'ibot va tashviqotqilish ishlarini amalga oshirish.</p>	<p>2024-yil 1-noyabr Doimiy</p>	<p>Tuman hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari, Kambag'al oilalarga biriktirilgan rahbar xodimlari</p>
----	--	--	---	---

	o'rgatish.			
<b>V. Ijtimoiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini ro'yobga chiqarish choralarini amalga oshirish</b>				
7.	Kambag'al oilalar reestrini shakllantirish hamda oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual reja ishlab chiqish tartibini belgilash.	Oilalarni Kambag'al oilalar reestriga kiritish va chiqarish mezonlarini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasigakiritish. Oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual reja ishlab chiqish tartibini tasdiqlash uchun "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasigakiritish. Kambag'al oilalar reestrini shakllantirish hamda yuritishni yo'lga qo'yish.	2024-yil 10-noyabr  2024-yil 1-dekabr  2024-yil 1-dekabr	Tuman hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari, Mingbuloq tuman «Inson» jtimoiy xizmatlar markazi (E.Abdurahmonov), Kambag'allikni qisqartirishva bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov)

Mingbuloq tuman hokimining  
2024-yil 11-oktabrdagi  
528-6-81-Q/24-son qaroriga  
2-ilova

**Mingbuloq tumanida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturiga muvofiq aholini qo'llab-  
quvvatlash choralarining  
MAQSADLI KO'RSATKICHLARI**

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi</b>	<b>Qamrab olinadigan kambag'al oilalar soni</b>	<b>Aholi soni, nafar</b>
	<b>Dasturda belgilangan chora-tadbirlar orqali kambag'allikdan chiqarish</b>	<b>1 391</b>	<b>2 089</b>
<b>1</b>	Tadbirkorlar orqali barqaror ish o'rinlari va yuqori daromad manbalarini ta'minlash	439	1 734
1.1	<i>Tadbirkorlarga imtiyoz berish orqali doimiy ish o'rinlariga joylashtirish (sanoat, savdo, to'qimachilik, umumiy ovqatlanish, parrandachilik, kasanachilik, elektrotexnika, transport)</i>	260	1 142
1.2	<i>Tadbirkorlikka jalb etish</i>	84	369
1.3	<i>50 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlarini ijara asosida ajratish</i>	95	420
<b>2</b>	<b>Sifatli ta'lim bilan qamrab olish</b>	<b>240</b>	<b>467</b>
2.1	Kambag'al oilalar farzandlarini maktabgacha ta'lim bilan qo'shimcha qamrab olish	68	102
2.2	<i>Kasb-hunarga o'rgatish orqali bandligini ta'minlash</i>	115	115
2.3	Xorijiy tillarga o'rgatish orqali tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga yuborish	57	250
<b>3</b>	<b>Sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish</b>	<b>179</b>	<b>787</b>
3.1	<i>Order asosida davolash</i>	23	100
3.2	<i>Birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish (skrinig)</i>	156	687
<b>4</b>	<b>Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	<b>122</b>	<b>122</b>
4.1	<i>Yangi tayinlanadigan pensiyalar</i>	53	53

4.2	<i>Yangi tayinlanadigan ijtimoiy nafaqalar</i>	69	69
5	AyTi texnologiyalardan foydalanish (noutbuk berish, AyTi kurslarida o'qitish)	5	5
6	Yashil texnologiyalardan foydalanish ("yashil" uy-joy qurish, quyosh panellari va geliokollektorlar o'rnatish)	12	53
7	<b>Davlat organlari rahbarlarini 5 tadan nochor oilalarga biriktirish</b>	<b>302</b>	<b>1 330</b>
8	<b>Infratuzilmani yaxshilash</b>	<b>92</b>	<b>402</b>
8.1	300 ta mahallada tomorqa va ijaraga olingan yerlarda sug'orish tizimi ta'minotini yaxshilash	62	270
8.2	<i>500 ta kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan mahallalarda infratuzilmani yaxshilash (elektr, ichimlik suvi, yo'l, aloqa internet)</i>	30	132

Mingbuloq tuman hokimining  
2024-yil 11-oktabrdagi  
528-6-81-Q/24-son qaroriga  
3-ilova

**Mingbuloq tumanida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturigamuvofiq aholini qo'llab-  
quvvatlash choralarining  
MAQSADLI KO'RSATKICHLARI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Qamrab olinadigan kambag'al oilalar soni	Aholi soni	Shundan			
				Sentyabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr
	<b>Dasturda belgilangan chora-tadbirlar orqali kambag'allikdan chiqarish</b>	<b>1 391</b>	<b>2 089</b>	<b>414</b>	<b>509</b>	<b>603</b>	<b>563</b>
<b>1</b>	<b>Tadbirkorlar orqali barqaror ish o'rinlari va yuqori daromad manbalarini ta'minlash</b>	<b>439</b>	<b>1 734</b>	346	418	502	468
1.1	<i>Tadbirkorlarga imtiyoz berish orqali doimiy ish o'rinlariga joylashtirish (sanoat, savdo, to'qimachilik, umumiy ovqatlanish, parrandachilik, kasanachilik, elektrotexnika, transport)</i>	260	<b>1 142</b>	228	275	331	308
1.2	<i>Tadbirkorlikka jalb etish</i>	84	<b>369</b>	73	91	106	99
1.3	<i>50 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlarini ijara asosida ajratish</i>	<b>95</b>	420	83	103	121	113
<b>2</b>	<b>Sifatli ta'lim bilan qamrab olish</b>	<b>240</b>	<b>467</b>	93	<b>113</b>	<b>135</b>	<b>126</b>
2.1	<i>Kambag'al oilalar farzandlarini maktabgacha ta'lim bilan qo'shimcha qamrab olish</i>	68	<b>102</b>	20	26	29	27
2.2	<i>Kasb-hunarga o'rgatish orqali bandligini ta'minlash</i>	115	<b>115</b>	22	29	33	31
2.3	<i>Xorijiy tillarga o'rgatish orqali tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga yuborish</i>	57	<b>250</b>	49	<b>62</b>	<b>72</b>	<b>67</b>

<b>3</b>	<b>Sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish</b>	<b>179</b>	<b>787</b>	157	<b>190</b>	<b>228</b>	<b>212</b>
3.1	<i>Order asosida davolash</i>	23	<b>100</b>	19	26	28	27
3.2	<i>Birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish (skrining)</i>	156	<b>687</b>	137	166	199	185
<b>4</b>	<b>Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	<b>122</b>	<b>122</b>	24	<b>31</b>	<b>35</b>	<b>32</b>
4.1	<i>Yangi tayinlanadigan pensiyalar</i>	<b>53</b>	53	10	14	15	14
4.2	<i>Yangi tayinlanadigan ijtimoiy nafaqalar</i>	<b>69</b>	69	13	18	20	18
<b>5</b>	<b>AyTi texnologiyalardan foydalanish (noutbuk berish, AyTi kurslarida o'qitish)</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	0	3	1	1
<b>6</b>	<b>Yashil texnologiyalardan foydalanish ("yashil" uy-joy qurish, quyosh panellari va geliokollektorlar o'rnatish)</b>	<b>12</b>	<b>53</b>	10	14	15	14
<b>7</b>	<b>Davlat organlari rahbarlarini 5 tadan nochor oilalarga biriktirish</b>	<b>302</b>	<b>1 330</b>	266	320	385	359
<b>8</b>	<b>Infratuzilmani yaxshilash</b>	<b>92</b>	<b>402</b>	80	<b>98</b>	<b>116</b>	<b>108</b>
8.1	<i>300 ta mahallada tomorqa va ijaragaolingan yerlarda sug'orish tizimi ta'minotini yaxshilash</i>	62	<b>270</b>	53	67	78	72
8.2	<i>500 ta kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan mahallalarda infratuzil-maniyaxshilash (elektr, ichimlik suvi, yo'l, aloqa internet)</i>	30	<b>132</b>	26	33	38	35